

MAKONNING TOVUSHLI TASVIRI

Yodgorov Jaloliddin Jamolidinovich

IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, PhD

Email: yodgorov202@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada lirik matnlardagi taqlid so'zoeik so'zlarning lingvistik va poetik xususiyatlari haqida so'z boradi. Xususan, bu til birliklarining tovush makonini leksiklashtirishdagi lisoniy imkoniyatlari haqida fikr bildiriladi.

Abstract: The article deals with the linguistic and poetic properties of taqlid so'zoeic words in lyrical texts. In particular, we are talking about the linguistic possibilities of these language units in the lexicalization of sound space.

Kalit so'zlar: badiiy matn, lirik matn, taqlid so'zeya, semiotik obraz, tasavvur, tushuncha, vizual, akustik, metaforik obraz, tovush motivatsiyasi.

Key words: literary text, lyrical text, taqlid so'zoeia, semiotic image, imagination, concept, visual, acoustic, metaphorical image, sound motivation.

Fikrni obrazli va ta'sirchan chiqishida alohida ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri so'z qo'llashdagi aniqlikdir. Muayyan kontekst uchun yagona bo'lgan o'tkir va yorqin so'zni tanlab olish u qadar oson ish emas. Buning uchun har bir so'zning lingvistik mohiyatini chuqur anglash, har bir so'zda potentsiya sifatida mavjud bo'lgan estetik imkoniyatlarni nozik va har taraflama his qilish benihoya zarurdir [Abdurahmonov, Mahmudov, 1:52]. Til – bu nafaqat insonlarning asosiy aloqa vositasi, fikrlarni shakllantirish, his-tuyg'u, istak va shu kabilarni ifodalash vositasi, balki badiiy adabiyotning obrazlari burkanadigan real tashqi shakli hamdir [Shmelev, 12:3]. Badiiy matn ijodkori bu “qonunlar”ga amal qilishi va til egasining tafakkur doirasidan chetga chiqmasligi talab etiladi. Ayniqsa badiiy matn talabi bilan shakllangan umumiy proeksiya va ijodiy individuallikni ko'rsatuvchi lisoniy birliklardan biri taqlid so'zlardir. Zero, taqlid so'zlar, *birinchidan*, inson ongidan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan va eshitish hissiyotlarida, ya'ni eshitish qobiliyatida sodir bo'ladigan tovush olamidir. *Ikkinchidan*, vizual ta'sirni lisoniy birliklar bilan atash va, *uchinchidan*, “kishi organizmida paydo bo'lgan sezgilar va boshqa abstrakt ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi” [Qo'ng'urov, 8:61]. Bu turli xil tovush, ko'rish hamda his etish tizimlari bilan to'ldirilgan ovozli (yoki abstrakt) makonning bir turi bo'lib, bio va ijtimoiy semiosferalar o'rtasidagi axborot aloqasi mexanizmi sifatida tovush kodidan foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, bu lisoniy birliklarning badiiy matndagi ustuvor jihatini belgilovchi asosiy unsur taqlid so'zlarni grammatik va mantiqiylik asosida qurshab turgan boshqa til birliklari bilan korporativ aloqaning mavjud bo'lishidir.

Sevgimning yashashi bir yilmi edi?

“G'uv” etib o'tguvchi bir yelmi edi? (Cho'lpon, “Aldanish”)

Tilni sistema sifatida o'rganish Ferdenand de Sossyur ko'rsatganidek, lisoniy birliklar o'rtasidagi munosabatni ochishga qaratilmog'i lozim. Lisoniy birliklar esa o'zaro paradigmatic, syntagmatic va pog'onali (iyerarxik) munosabatlardan tashkil

topadi [Iskandarova, 3:7]. Tilshunos olim R.Qo'ng'urovning ta'kidlashicha, Ch.Darvin „Oq tovuqning hamma patlari oq bo'lsa-da, bu oq patlar bir-birlaridan farq qiladi” deganidek, umuman, bir necha sinonimik so'zlar bir hodisani ko'rsatish uchun xizmat qilsa ham, har bir sinonimlik tasviriy so'z anglatgan ma'no o'zining ma'lum ma'no ottenkasi bilan ikkinchisidan farq qiladi [Qo'ng'urov, 8:46].

Darhaqiqat, O'TILda *g'uv* taqlid so'ziga shamol yelganda va boshqa narsalar uchganda, aylanganda chiqadigan tovushni, shuningdek, ba'zi qushlarning tovushini bildiradi deb ta'rif berilgan bo'lsa-da [O'TIL, 11:456], bu ta'rif taqlid so'zning umumiy lingvistik axborot berish vazifasini qamray olmaydi. Bu, albatta, lug'at tuzish bilan bog'liq ixchamlik va sqiqlik talablari bilan bog'liq. Xususan, yuqoridagi lirik parcha(fragment)da ham qo'llangan taqlid so'zning ko'rsatilgan aloqalar asosida shakllanganini ko'rish mumkin. Gap shundaki, azaldan xalqimiz ongida umrni qadriga yetish, uni juda tez o'tishi va hech qachon uni qaytarib bo'lmas hodisa sifatida baholash bilan bog'liq stereotipik shakllangan qarashlar mavjud. Bunga turli diniy(teologik) va e'tiqod rasm-rusumlarning asos bo'lganligi hech birimizga sir emas. Ana shu umr “tezligi”ni til egalari metaforik modellash orqali *g'uv* taqlid so'ziga yuklagan va, qaysidir ma'noda, umrni bu lisoniy birlik orqali ta'riflash bilan estetik obrazlilik yaratgan. Shuningdek, taqlid so'zda holatga taqlidning metaforik “zarra”lari ham minimal darajada bo'lsa-da sezilib turibdi. Bu tarzda nutqiy aktlar asosan yoshi kattalar yoki ma'lum bir hayot bosqichlaridan o'tgan kishilar nutqida bir qadar ko'p uchraydi. Bu haqda keyingi o'rinlarda fikr bildiriladi.

Parchaning birinchi misrasidagi sevgining umri (tashxis) bir yil (365 kun – kim uchundir juda uzoq vaqt) juda ham kam vaqt ekanligi aytilayotgan bo'lsa, bu “kam”lik ikkinchi misrada qo'llangan *g'uv* taqlid so'zi orqali dinamik tarzda yanada tezlashtirilgan. Shoir o'z sevgisi bilan andarmon qalbning vaqtlararo izchillashganligidan hamda zavqli onlarni tez o'tishida vaqtning “makkor”ligidan arz etadi. Subyekt estetik ta'sir darajasini oshirish va gnostik hissiyot intensivligini mukammallashtirish maqsadida taqlid so'zni shunchaki emas, aynan qo'shtirnoq (“”) tinish belgisi ostida beradi. Bu jihat retsipyent(o'quvchi)ni ana shu taqlid so'z (*g'uv*) atrofida birikayotgan mantiqiy tugallikni maksimal darajada mukammal (giper mazmunli) chiqishiga sabab bo'lgan. Xususan, tilshunos olim R.Qo'ng'urov tadqiqiga ko'ra, tasviriy so'zlar sostavidagi unli tovushlar tovushning asosan tembr jihatidan kuchli-kuchsizligini anglatish uchun xizmat qiladi. Tovushga taqlid so'zlarda a, o, i, u, o' unlilari ko'proq ishlatiladi [Qo'ng'urov, 8:46]. Agar misolga olingan *g'uv* taqlid so'zidagi u unlisi cho'ziq talaffuz etilsa, mantiqiy va estetik talabga qusur yetishi yoki taqlid so'zga berilgan ta'rifdan chekinish vujudga kelishi mumkin. Bu o'rinda olim R.Qo'ng'urov yana bir jihatga e'tibor qaratib, bir narsaning chiqargan tovushini turli holatda turli xil taqlid so'zlar aks ettirsa, ba'zan bir necha xil predmetlarning tovushi bitta yoki bir xil taqlid so'z bilan ifoda qilinadi. Bu narsa-predmetlarning hajm jihatidan ko'p-ozligi, narsalarning fizik xossalari, ular orasidagi masofa, geografik muhit, landshaft hamda kishilarning qabul qilish qobiliyatlari kabi ko'pgina hodisalar bilan bog'liqdir deb ta'kidlaydi [Qo'ng'urov, 8:71]. Zero, aytish kerakki, “belgi va ifoda (ma'no) to'liq bir-birini qoplay olmaydi.

Ularning chegaralari barcha nuqtalarda kesishavermaydi. Bir belgi bir qancha vazifalarga ega bo'lishi yoki bir ma'no turli xil belgilar yordamida ifodalanishi mumkin. Har qanday belgi bir vaqtning o'zida "omonim" va "sinonim"lik imkoniyatiga egadir" [Karsevskiy, 4:87].

Gulni yaxshi ko'ramiz,

G'uv-g'uv-g'uv.

Undan sharbat so'ramiz,

G'uv-g'uv-g'uv. (A.Obidjon, "Asalarilar qo'shig'i")

Tasviriy so'zlar turli xil leksik ma'nolarga egadir. Ular polisemiyalik, omonimiya va sinonimiya xususiyatlariga ham ega bo'lib, badiiy adabiyotda, asosan, stilistik rol o'ynaydi [Qo'ng'urov, 8:46]. *G'uv* taqlid so'zi bir martalik keskin, tez va shiddat kabi semalarni o'zida qamrasa (O'TILdagi ta'rif), uning takrori asosida yasalayotgan taqlid so'z bu harakatlarning jamini, uzulishlarsiz davomiy(regulyar)ligini hamda bir qadar kuchliligini ko'rsatadi. Misoldagi *g'uv-g'uv-g'uv* taqlid so'zi ijtimoiy-kommunikativ funktsiya tizimida asosan *g'uv-g'uv* tarzida qo'llanadi. Tilshunos olim N.Mahmudov fikricha ham, badiiy asarlar tilida uchraydigan g'ayriodatiy birikmalar alohida ekspressivlikni, emotsionallikni yuzaga keltiruvchi muhim vositalardan biridir. Bunday birikmalar ijodkorning konkret estetik maqsadi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Yozuvchi bu maqsad bilan adabiy tildagi ayrim cheklanishlarni o'zgartirish, buzish imkoniyatiga ham ega [Abdurahmonov, Mahmudov, 1:52]. Bu o'rinda sub'yekt (A.Obidjon) o'z "huquqi"dan foydalanganligini hamda u tomonidan o'quvchi tezaurusiga moslangan taqlid so'z (*g'uv-g'uv-g'uv*) ovozdagi intensivlik, tembr, uzunlik kabi akustik xususiyatlar genetik taqlid so'z(*g'uv*)ga qaraganda darajali (gradual) ahamiyat kasb etganligi ayon bo'ladi. "So'zlarda mavjud har bir sema ularning valentligi uchun asos bo'ladi, – deb ta'kidlaydi tilshunos olim M.Mirtojiyev. – So'zlar ma'nosidagi emosema ham emotik (emotsional) valentlikni yuzaga keltiradi. Shu emotik valentlik bo'yicha so'z bilan aloqaga kirishadi va semantik moslashadi" [Mirtojiyev, 5:281,282]. Shuningdek, bu taqlid so'zlar realizatsiyasida ham ma'lum bir motivatsion darajalanish va taqliddagi u unlisining sezilarli darajada cho'ziq talaffuz etilishi lozimdir. Ana shunda taqlid so'z orqali uzatilgan badiiy axborot o'quvchi tasavvurida tiniq va ishonarli namoyon bo'ladi. Zero, "poeziyada (nafis san'atda) tabiiy narsani odam ishonmaydigan qilib tasvirlashdan ko'ra g'ayritabiiy narsani ishonarli qilib tasvirlash yaxshiroqdir" [Arastu, 2:101]. Mobodo, shoir (A.Obidjon) lingvistik normalar asosida bu taqlid so'zlarni qo'shaloq (*g'uv-g'uv*) holda qo'llaganda ma'lum bir estetik va badiiy g'alizliklar vujudga kelishi kundek ayon. Umuman, Ferdenand de Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo'lagi deb hisoblab, ularni bir paytning o'zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga dahldor jarayonlar deb ta'riflagan edi [Sossyur, 7:48].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Х. Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан 1981.
2. Арасту. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди 2015.
3. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. Тошкент: Фан, 1998.
4. Карсевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. 4.2. – Москва 1965.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2010.
6. Миртожиев М. Махмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент Ўзбекистон 1992.
7. Соссюр де Ф. Труды по языкознанию. – Москва Прогресс 1977.
8. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан 1966.
9. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан 1990.
10. Задорнова V.Ҳа. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Москва 1992.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЕ, 2020.
12. Шмелев Д. Слово и образ. – Москва: Наука 1964.